

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA-YOSHLARNI IJTIMOIV FAOLLIGINI TARBIYALASHNING OMILLARI

Muxamedov To'liqinjon Djurayevich

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ijrochiligi va Madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim va tarbiya ishlarining mazmun mohiyati, Oliy ta'lim jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan turli ko'rinishdagi muammolar va ularning yechimlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar:

Oliy ta'lim, Qaror va Farmonlar, ma'naviy-axloq, davr talabi, talaba-yoshlar, davlat mustaqilligi, qadriyatlar, umuminsoniy insonparvarlik, ijtimoiy faollik, ta'lim-tarbiya.

ФАКТОРЫ ВОСПИТАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ВУЗА

Мухамедов Толкинджон Джураевич

Преподаватель кафедры музыкального исполнительства и культуры факультета
Искусствоведения Бухарского государственного университета

Абстрактный:

В статье говорится о сущности образовательной и воспитательной работы, проводимой в высших учебных заведениях, различных проблемах, с которыми можно столкнуться в процессе высшего образования и их решениях.

Ключевые слова:

Высшее образование, Постановления и Указы, духовно-этические, веления времени, студенчество и молодежь, государственная независимость, ценности, общечеловеческое, социальная активность, образование.

FACTORS OF EDUCATION OF SOCIAL ACTIVITY OF UNIVERSITY STUDENTS

Mukhamedov Tolkinjon Juraevich

Lecturer at the Department of Musical Performance and Culture, Faculty of Art
Studies, Bukhara State University

Abstract:

The article talks about the essence of educational and upbringing work carried out in higher educational institutions, various problems that can be encountered in the process of higher education and their solutions.

Keywords:

Higher education, Decrees and Decrees, spiritual and ethical, dictates of the time, students and youth, state independence, values, universal, social activity, education.

Bugungi kun davr talabiga mos ravishda Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha Prezident hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator farmon va qarorlar chiqarilib, ijrosi ta'minlanmoqda. "Davlat oliy ta'lim

muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.06.2022 yildagi PQ-279-son qarori, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi PF-27-son Farmoni va yana bir qator Qaror va Farmonlar shular jumlasidandir.

Ushbu qabul qilinayotgan Qarorlar va Farmonlarda avvalombor Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim va tarbiya ishlarining mazmun mohiyati—kasbiy va huquqiy, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo'nalishlar bo'lishi muhimligi ta'kidlangan. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan juda mas'uliyatli vazifadir. Bugungi kun davr talabi sharoitida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jumladan:

- Har bir ta'lim oluvchining ongida davlat mustaqilligi-xalqning oliy g'oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o'z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta'minlash va tarixiy o'tmishiga, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o'ziga xos yo'lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug'orilgan oliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni to'g'ri tushuntirish va uni e'tiqodga aylantirish;

- Ta'lim oluvchilarda umuminsoniy insonparvarlik axloqi, madaniyat me'yorlarini, zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji, o'zini yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish ko'rinishlariga muvosiis bo'lish ruhida tarbiyalab borish- ularni yuqori axloq egalari bo'lib yetishishlariga sabab bo'ladi. Bu ishlarni amalga oshirishda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish muhim o'rinni egallaydi. Ularning qiziqish va istaklari hamda talab-ehtiyojlarini inobatga olgan holda turli yo'nalishda to'garaklar, fan klublari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, qo'shimcha ta'lim kurslari va h.k.larga talabalarni jalb qilish - talaba-yoshlarni kasbiy va ma'naviy-axloqiy ijtimoiy faolligini tarbiyalash sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ijtimoiy faolligini tarbiyalashning asosiy vazifalari:

- yoshlarning o'z-o'zini rivojlantirishga sharoitlar yaratish,

- sog'ligini tiklash,

- ijodiy faoliyat yuritishga yo'llash,

- nog'ironlarning ijtimoiylashuviga yordam berish va h.k.

To'garaklar va qo'shimcha ta'lim kurslarida o'qitish asosan quyidagi shakllarda olib boriladi: nazariy (ma'ruzalar o'qish, suhbatlar, disputlar tashkil etish va h.k) hamda amaliy (musiqa va tasviriyy san'at yo'nalishlari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkillashtirish, ekspeditsiyalar, sayohatlar tashkil etish, konferentsiyalar, slyotlar o'tkazish). Bu ishlardan asosiy maqsad: yoshlarga bilim berish, ijtimoiylashtirish va hayotga tayyorlash nazarda tutiladi. Ijtimoiy faollikni tarbiyalash dasturlari tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuviga, bugungi kunning dolzarb muammolarini tushunishga, muammolarni mustaqil tarzda hal etishga o'rgatishga, o'z bilimini oshirib borishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ijtimoiy — pedagogik faoliyat jarayonida quyidagi tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

- Yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yondoshish;

- Kasbiy professional yondoshuvi;
- Talabani fe'l-atvori va tabiatiga mos yondoshuv;
- Madaniy salohiyati va iqtidoriga mos yondoshuv.

Bu faoliyatlar jarayonida ta'limiy faoliyat metodi, faoliyat va muloqatni o'zgartirish metodi, munosabatlarni o'zgartirish kabi metodlardan foydalanish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida oddiydan-murakkabga, eskilikdan-yangilikka qarab harakat qiluvchi, yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lgan ijtimoiy faol yoshlarni, mutaxassislarni tarbiyalashga alohida yondashmoq zarur. Shu o'rinda bo'lg'usi o'qituvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish, o'quv faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish orqali ularda ijtimoiy faollikni shakllantirish va rivojlantirish muhim sanalib, bunda motivlashtirish yoki motivatsiya o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Insonning qobiliyati bevosita motivlashgan mexanizmlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muhitini belgilaydi va dinamik ma'naviy ta'sir etish munosabatini o'zida aks ettiradi. Motiv bilan munosabatlari psixik faollikning bevosita bajarilishi negizi hisoblangan faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda ijtimoiy faollik haqida keng ma'lumotlar berilgan. "Ijtimoiy faollik atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning intensiv faoliyatini belgilash uchun qanday bo'lsa, uni amalga oshirishga qobiliyatni belgilash uchun ham shunday ishlatiladi. Shunday qobiliyat bo'la turib, ijtimoiy faollik murakkab, integral fazilat sifatida mavjud. U qandaydir alohida xususiyatni, balki hayotiy faoliyat xususiyatlarining butun majmuini ifodalaydi". Talabalarning ijtimoiy faolligi ular o'qiydigan, ishlaydigan, hayot tajribasini egallaydigan ta'lim jamoalarining ijtimoiy faolligi bilan bog'liq. Ijtimoiy faol talaba va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jamiyatimizda milliy istiqlol g'oyasi asosida olib borilayotganligi bilan demokratik va milliy xususiyat kasb etadi. Talabani o'quv-biluv jarayonidagi faolligi uning kasbiga bo'lgan qiziqishi yo'lidagi maqsadini yanada oydinlashtirishini ko'rsatdi. Bu jarayon intizom, tashkilotchilik va mas'uliyatning past darajasi hukm surgan jamoalarda to'xtab qolishi mumkin. Boshqa tomondan, o'quvchilarning faolligi rivojlanishining muvaffaqiyati ularning har birining individual fazilatlariga va shaxsiy intilishlari motivatsiyasiga bog'liq. Talabalarning ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida motivlashtirish ularda ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati, insonparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, xalqi va millatiga munosib farzand bo'lib shakllanishga, sadoqat va e'tiqod, irodaviylik, erkinlik va bag'rikenglik, rostgo'ylik kabi qadriyatlarni e'zozlashga o'rgatish kabi tushunchalarni o'zlashtirish va ularda mazkur tushunchalarni o'rganish uchun qiziqishlarni vujudga keltiruvchi ijobiy motivlarni shakllantirish muhim sanalib, ular o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi. Motiv – bu insonning xulq-atvorini ichki psixologik boshqarish bo'lib, yo'naltirilganlikni, tashkil qilinganlik, qo'llab-quvvatlanganlikni o'z ichiga oladi. Ayrim olimlar motivni jarayon sifatida qarab, insonlarni hatti harakatga keltiruvchi, ya'ni ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar deb hisoblaydi. Demak, motiv psixologik adabiyotlarda insonni ma'lum hatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydigan, yo'naltirilgan harakat yoki qo'zg'atadigan kuch-quvvat deb keltirilgan. Motivlar ularning mazmunini aks ettirish shakliga qarab ham birbiridan farq qiladi: hissiyot, tasavvur, fikr, tushuncha, g'oya, ma'naviy ideal va boshqa motivlar. Ba'zi

hollarda motiv alohida harakatlarga undab, bu harakatning maqsadi bilan bevosita mos keladi. Ko‘pincha, murakkab faoliyatda motiv harakat maqsadiga bevosita mos kelmay, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha harakatlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun faoliyat predmeti motiv harakatining o‘zidir. Ta’lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu – pedagog va talabalarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. Bu davrda o‘quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o‘tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni tarbiyalashda ta’lim muassasalari yetakchi o‘rin egallasada, uzluksiz tarbiyaviy ta’sir o‘tkaza olmaydi, chunki, talabalar ma’lum muddatgina ta’lim muassasasida, o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri ostida bo‘lib, qolgan vaqtining asosiy qismini oilada, ko‘chada, jamoat orasida o‘tkazadilar. Ta’tillar davrida o‘quvchilar ta’lim muassasasi o‘qituvchisi ta’siridan chetda qoladilar. Demak, ta’lim muassasasida yoshlarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, dars jarayoni va tashkillashtirilgan tadbirlardan holi vaqtda ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining ta’siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar. Talabalarga nisbatan ta’lim muassasasining ta’sirini susaytirmaslik maqsadida dars mashg‘ulotlaridan tashqarida va ta’til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e’tibor berish kerak. Ana shu maqsadda bir qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Ta’limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Umumiy qilib aytganda ijtimoiy ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i zarur:

- talabalarda milliy-madaniy ehtiyojlarini qoniqtirish, jismoniy va ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalash;
- ijtimoiy va ishlab chiqarish talablari bilan belgilanadigan bilimlar tizimini o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- kasbiy, ilmiy dunyoqarash, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy madaniyat, ijodiy, erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilimlarini oshirib borishi;
- Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fuqarolik dunyoqarashi, insoniy qadr-qimmat, demokratik o‘zini boshqarishda ishtirok etish, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarligini yuzaga keltirish.

Xulosa qilib aytganda, ana shu umumiy vazifalar bir qator alohida masalalardan iborat bo‘ladi va ular o‘quv fanlari mazmunida uyg‘unlashtiriladi. Insonning ma’naviyati uning odobi, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlari zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida inson ijobiy sifatlarini kamol toptirib, talabalarning ijtimoiy hayotdagi faolliklarini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.06.2022 yildagi PQ-279-son qarori.
2. “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat

dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi PF-27-son Farmoni.

3. Educational Process Legislation and Principles and their Use in Student Practice

4. "Tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari va prinsiplari hamda ulardan talabalar amaliyotida foydalanish" International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192 6485-6492 betlar Sh.U.Norova;

T.Dj.Muxamedov

5. Sharq xalqlari san'ati tarixi, musiqa merosi va maqom ijrochiligi haqida

Bosma «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601
 Volume: 1, ISSUE: Урл:<https://cyberleninka.ru/article/n/sharq-xalqlari-san-ati-tarixi-musiqa-merosi-va-maqom-ijrochiligi-haqida> Tulkinjon Djurayevich Muxamedov

6. Способы и средства развития музыкальных способностей учащихся на уроках музыки. Проблемы науки, (2021).43.

Урл:<https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-i-sredstva-razvitiya-muzykalnyh-sposobnostey-uchaschihsya-na-urokah-muzyki> Muxamedov T. D.

7. Umumta'lim maktablarining musiqa to'garaklarida qo'shiq o'rgatish usullari

Bosma Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal ISSN2181-6833 Maxsus son 2021 may To'lqinjon Muxamedov

8. Issues of theory and methods of the conductor executive arts Bosma

European Scholar Journal (ESJ) Available Online at:
<https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 9, SEPTEMBER 2021, ISSN: 2660-5562
 Muhammedov To'lqinjon Jo'rayevich

9. Factors of Social Activity of Students of Higher Educational Institutions

Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni ijtimoiy faolligini tarbiyalashning omillari

Bosma European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)Volume 2 | Issue 6 | ISSN: 2795-8612 19-21Tulkinjon Juraevich Mukhamedov

10. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik

shaxsini shakllantirish PEDAGOGIC MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Maxsus son ISSN2181-6833 To'lqinjon Muxamedov

11. Badiiy havaskorlik yo'nalishida "Buxorcha" va "Mavrigi" turkumlarining

rivojlanishi International Conference on Research Identity, Value and Ethics Hostedfrom USA, April 30 th 2022

<http://www.conferenceseries.info/index.php/ICRIVE> To'lqinjon Djurayevich Muxamedov

12. Xor dirijyorligi san'ati vositasida musiqiy ta'lim-tarbiya(Monografiya)

UDK:78.087.684 BBK:85.314 Muxamedov To'lqinjon Djurayevich "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti,2022

13. Oliy ta'lim sohasida Xor-dirijyorligi mahoratini oshirish texnologiyalari

Bosma Special issue | 2022 "Innovative Features of Learning for Development" Analytical Journal of Education and Development ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz 160-165 betlar Muxamedov To'lqinjon Djurayevich

14. O'zbek xalqi milliy madaniyati va milliy qadriyatlari yoshlar nigohida Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 04 | Apr - 2023 ISSN: 2181-

2608 www.sciencebox.uz 16-20 betlar Samandarova Madina Gayrat qizi, T. D. Muxamedov

15. Bolalar musiqa maktablarining boshlang'ich sinflarida skripka shtrixlarini o'rganilishi. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 273-277 betlar Muxamedov Feruz To'liqjonovich, To'liqjon Djurayevich Muxamedov

